

BOLALAR O'YIN QO'SHIQLARI

Nurmatova Madina Fayzullo qizi

Buxoro davlat universiteti

tayanch-doktoranti

E-mail: nurmatovamadinaxon.17@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek bolalar folkloriga xos janrlardan biri bo'lgan bolalar qo'shiqlari va ularning yosh avlod kamolotidagi ahamiyati, qo'shiqlarning turlari, xususan, o'yin qo'shiqlarining kuylanish uslublari, kelib chiqish tarixi, nomlanish sabablari yoritilgan.

Kalit so'zlar: poetik matn, dramatism, improvizatsion o'yin qo'shiqlari, poetik dialog

ДЕТСКИЕ ИГРОВЫЕ ПЕСНИ

Нурматова Мадина Файзулло кызы

Бухарский государственный университет, постдокторант

Аннотация. В данной статье рассматриваются детские песни, один из жанров узбекского детского фольклора, и их значение в развитии молодого поколения, виды песен, в частности, стили исполнения игровых песен, история их происхождения и причины их наименования.

Ключевые слова: поэтический текст, драматургия, импровизационные игровые песни, поэтический диалог.

GENRES BASED ON JOKE AND LAUGHTER IN CHILDREN'S FOLKLORE

Nurmatova Madina Fayzullo qizi Bukhara

State University Basic Doctoral Student

Abstract. This article discusses songs, one of the genres of uzbek children's folklore, and their importance in the development of the younger generation, the types of songs, in particular, the singing styles of game songs, their history of origin and the reasons for their names.

Keywords: poetic text, dramatism, improvisational game songs, poetic dialogue.

Ma'lumki, har bir davr yoki zamon o'zining taraqqiyot darajasi negizida o'z ma'naviy dunyosiga ega bo'ladi. Uzoq asrlardan bizgacha yetib kelgan bolalar

qo'shiqlari og'zaki badiiy ijodining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Ularda yosh avlodning jo'shqin hayoti, yil fasllari hamda turli bayramlarga munosabati o'ziga xos tarzda ifoda etiladi. Bolalar qo'shiqlarining aksariyati o'yin bilan yoki o'yin vaziyatida aytilgan. Xususan, bahor chog'i yomg'ir shivirlab yog'arkan, shu fursatda quvongan bolalar sho'x ovozlari bilan, "Yomg'ir yog'aloq" qo'shig'ini kuylaydilar. Binafsha va boychechaklarning unib chiqishi ham bolalarning quvnab o'ynashlari va beixtiyor qo'shiq kuylashlariga sabab bo'lgan va natijada "binafsha", "chittigul", "boychechak" qo'shiqlari vujudga kelgan. Bolalar repertuaridan joy olgan o'zbek xalq qo'shiqlari raqsboqli, ko'pchilik bo'lib ijro etilishi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi.

Bolalar o'yin qo'shiqlarida ma'lum bir tarixiy davr, bolalar o'sayotgan atrof-muhit va bunga bolalarning munosabati, shuningdek, kayfiyat va kechinmalari yaqqol sezilib turadi. Bunda harakat va ovozning ritmik birligi o'ziga xos musiqiylik yaratib, bolaning o'yin holatidagi kayfiyatini ifodalaydi. Xususan, koptok o'yinida aytiladigan qo'shiq koptokning yerga yoki devorga urilishiga hamohang bo'lib, shu orqali yutuqlar soni hisoblanadi.

"Kattalarning o'z o'yinlari bo'lganidek, bolalarning ham o'z o'yinlari bor, ular o'zaro juda ko'p umumiyliklarga ega bo'lsarlar-da, bir-birlaridan shunchalik ajralib turadilarki, ana shu farqlarni o'rganish lozim", - deydi folklorshunos olim Vinogradov. Darhaqiqat, o'yin bolalar beshikdaliklaridayoq "Bordi-bordi", "Havzak-havzak"lar bilan hayotlariga kirib boradi. Bolalar ul'aygani sari o'yinlar ham beshikdan uyga, uydan hovlioga, hovliadan ko'chaga, ko'chadan keng maydonlarga ko'chib borish asnosida ham shaklan, ham mazmunan teranlashadi. Shu sababli bolalikning har fasliga xos o'z o'yinlari mavjud. Ularning ham faqat bahorda, faqat yozda, faqat kuzda kuylanadigan ichki turkumlari ham bor. Bu, albatta, u yoki bu o'yinning fasllar almashishi bilan yuz beradigan mehnat jarayonlari, ularga daxldor urf-odatlar, irim-sirimlarga uyg'un xatti-harakatlar natijasida yuzaga kelganligi oqibatidir. Shu bois chorvachilik, quruvchilik, kulolchilik, baliqchilik kabi kasb-korlarga muqallidan yuzaga kelgan o'yinlarni V.N.Vselovodskiy-Gerngorss "ishlab chiqarish o'yinlari" deb atagandi.

Bolalar qo'shiqlari yakka holda ham, xor bo'lib ham kuylanadi. Shuningdek, hamisha o'ynab turib, yarim shovqin solingan tarzda ijro etiladi. Xorovod bo'lib ijro etiladiogan dialog shaklidagi poetik matnlarning aksariyatida buyurish ohangi yetakchilik qiladi. Chunonchi, "Oq terakmi, ko'k terak?" qo'shig'ini oladigan bo'lsak, bu o'yin qo'shiq bolalar repertuarida uzoq yillardan buyon mavjud. G'.Jahongirov mazkur o'yin qo'shig'ining kelib chiqish tarixini qabilachilik davriga xos jang qoidalari ta'siri bilan bog'laydi. N.Safarova esa bu o'yin xususida to'xtalarkan, oq rangda baxt, omad, yorug'lik, yaxshilik va ko'k rangda o'lim; shuningdek, "terak" bola, inson obrazini ramziy ifodalab, daraxt topinchiga taqalganini asoslaydi. Kompozitsiyasining asosini qo'shiq tashkil etadigan o'yinlarning ko'pchiligi

improvizatsion xarakterga ega. Bunday mukammal, voqealari murakkab qo'shiqlar haqida G'.Jahongirov shunday yozadi: "Biz ularning xususiyatlaridan kelib chiqib, afsonaviy qo'shiqlar, voqeaband bola termalari deb atasak ham bo'ladi, negaki bolalarning jo'shqinligi va harakatchanligi to'lib-toshgan bunday qo'shiqlar ularning sermahsul fantaziyasi bilan ham yo'g'rilgan". Olim bola termalari deb nomlagan bunday qo'shiqlar Namangan bolalar folklori namunalari orasida ham talaygina:

Kichkina qaychi qo'limni kesdi,

Bobochalar yo'limni to'sdi.

- Qaqa borasan?
- Toqqa boraman.
- Tog'da nima bor?
- Tog'da pista bor.
- Nima qilasan?
- Pista chaqaman.
- Pistani mag'zi,
- Shahantti qanti.

Mazkur qo'shiq matnining boshqa viloyat bolalar tilida turlicha variantlari mavjud. Ularning barchasida ohang va dinamika bir xil, ammo voqealar ketma-ketligi o'zgarishga uchragan.

Bolalar o'rtasida keng tarqalgan "Oq terakmi ko'k terak?", "Chuchvara qaynaydi", "Tepdim, sandiq ochildi", "Dumsiz tulki", "Quyoning, quyoning, ne bo'ldi?" singari o'yinlar va ularning qo'shiqlari O'zbekistonning turli hududlarida turlicha nomlansada, mazmuni deyarli bir xil.

Turli yoshdagi maktab bolalari og'zaki repertuari xilma-xil shakldagi qo'shiqlarga boy: unda to'rtlik, beshlik, oltilik, sakkizlik, hatto 30-70 satrgacha cho'zilgan voqeaband qo'shiqlar ham uchraydi. Biroq shunga qaramay, to'rtlik shakli eng ko'p tarqalganligi bilan ajralib turadi. Shaklan ixchamligi, ijro jarayonining rang-barangligi sababli bolalar o'tmishda ham, bugungi kunda ham qo'shiqlarning bu turiga faol murojaat qilganlar va qilib kelmoqdalar. Ularda barcha yoshdagi bolalarning qalb kechinmalari, quvonch-u zavqlari, hayotga bo'lgan munosabatlaridagi o'ziga xosliklari, qolaversa, orzu-havaslar aks etib turadi:

Otam meni o'qitsa,

Sochlarimni to'qitsa,

Atlas ko'ylak kiygizib,

Onam yuzimdan o'psa.

Qalblari beg'ubor bolakaylar o'z orzu-havaslarining reallashuvi jarayonida otionalari imkoniyatlarini anglab borishadi va buning natijasida jamiyatdagi tengsizliklarni ham ilg'ashga intilishadi. Ammo o'smirlar bunday vaziyatda masalaga

boshqacha yonashadi, ya'ni ular endilikda o'zi va boyvachcha o'rtog'i o'rtasidagi tengsizlikni aniq ajrata oladi.

Etikchamni bo'yi bor,

Kiyay desam – juda tor.

Boyvachcha kunda kiyar,

Ko'nasiga bizlar zor.

Oradan bir asrdan ortiq vaqt o'tganiga qaramay, o'yin tartibi o'zgarmay o'z holicha saqlanib kelmoqda. Biroq o'yin qo'shig'i o'zgarishga uchrab, xilma-xil variantlar kasb etganini ta'kidlab o'tish lozim:

- Qamar, qamar, qamchini,

Qovurg'aning yanchini.

Oq terakmi, ko'k terak?

Bizdan sizga kim kerak?

Ikkinchi safdagilar ham xuddi shu ohangda xor bo'lib shu tarzda javob qaytarishadi:

- Kichkina Salim kerak.

Odatda qarshi tomon ozg'inroq, kuchsizroq yoki o'zlariga yoqqan bolani da'vat etishi an'anaviydir. Shu sababli da'vat etiluvchi bola nomi turlicha sifatlanishi mumkin, ammo ushbu javob ritmi savol ritmiga uyg'unlashishi lozim. Shunisi xarakterliki, savoldan iborat ikkilik deyarli barcha variantlarda bir xil shaklda saqlanib qolgan bo'lsa-da, o'yinchilar holatini ifodalovchi yangi satrlar qo'shilgan:

- Sohibjamol uydan chiqsa,

Hammani qaratadi.

Bizdan sizga kim kerak?

- Jilmayibgina turgan

Bo'tako'z Zumrad kerak.

Ko'rinib turibdiki, qo'shiq matni davr ruhiga yo'g'rib transformatsiyaga uchrashi natijasida turlicha variantlar yuzaga kelgan. Ammo o'yinning asliyatidagi tartib-qoida qat'iyligicha qolavergan: safni yorib o'tgan – g'olib, yutqizgan tarafdin bir bolani o'z guruhiga olib ketadi, yorolmagan – mag'lub, o'sha safning bandisiga aylanib qoladi, o'z guruhini kuchsizlantiradi.

O'yin qo'shiqlarning aksariyati bolalarning o'z ota-onalari turmushiga taqlid qilishlari natijasida yuzaga kelgan. Qolaversa, bunday o'yinlar nafaqat bolalar kuzatuvchanligi samarasi hisoblanadi, balki o'ziga xos hayot eksperimentlari bo'lib ham xizmat qiladi. Xususan, "Olmacha do'm-do'm", "Osmondagi oy" o'yinlari uchun dehqonning o'zi yetishtirgan olmani sotishiga bolalar taqlidi asosga aylangan bo'lsa, "Bog'lam-bog'lam", "Guldur-gup", "Chilliktoy", "Qo'rg'on olish", "Cho'pon va shaqol", "Boylandi" o'yinlari uchun chorvachilik bilan shug'ullanuvchilar faoliyatiga taqlid qilish asos bo'lgan. Yuqorida sanalgan o'yinlarning e'tiborga molik jihati shundaki, ular "Oq terakmi, ko'k terak?" o'yini singari qarama-qarshi taraflarga

bo'linmagan holda o'ynalsa-da, poetik dialog ulardagi dramatismni kuchaytiruvchi vositaga aylangan. Shuningdek, poetik dialog o'yinga xos harakat mantiqiga uyg'unlashgan bo'ladi. Bunday o'yinlar, asosan, rollarga bo'lingan holda o'ynaladi. Jumladan, "Cho'pon va shaqol" o'yinida:

Cho'pon: - sho'rdan shag'ol o'tdimi?

Dumi loyga botdimi?

Gulbutaning tayiga

Bacha ochib yotdimi?

Ko'rinib turibdiki, bolalar o'rtasidagi bunday qiziqarli o'yinlarning asosini poetik matnlar tashkil qiladi. Qolaversa, o'yin qo'shiqlarning aksariyati rolga kirishgan holda ijro etiladi.

Xulosa qilib atganda, o'zbek xalqining bolalar o'yinlari milliy madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lib, bolalarning o'zaro muomala madaniyatining oshishida, kirishimlilik, dilkashlik kabi fazilatlar shakllanishida, qolaversa, ham jismoniy, ham ma'naviy o'sib-ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'yin qo'shiqlari bolalar orasida ijtimoiy ko'nikmalarni, o'zaro yordam va sog'lom raqobatni rivojlantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov O. O'zbek xalq musiqa ijodi. – Toshkent, 1994.
2. Mirzayev T., va b. O'zbek xalq poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
3. Qodirov A. O'zbek xalq bolalari o'yinlari. – Toshkent: Fan, 2009.
4. Safarov O. O'zbek xalq bolalari o'yinlari. – Toshkent: Sharq, 2013.–176 bet.
5. Tursunov A. An'anaviy bolalar o'yinlari va ularning rivojlanishi. –Toshkent: Fan, 2005.
6. w.w.w.ziyouz.com kutubxonasi.